IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

BUGUNGI KUNDA YOSHLAR ORASIDA DEMOTIVATSIYA HOLATINING ORTISHI

O'rolova Madina Bekmurod qizi

Annottatsiy

Bugungi kunda dunya bo'ylab yoshlar orasida keng tarqalib borayotgan kasallik-Demotivatsiyadir.Demotivatsiya qanday kasallik?Demotivatsiya bu-inson har kuni bajarishi kerak bo'lgan kundalik faoliyatni amalga oshirish istagining yo'qligi.Biron ishga qo'l urgan vaqtda oxiriga yetkazmay shu ishni bajarish istagining sezilarli darajada pasayishi. Bu esa ulg'ayib borayotgan yoshlar o'rtasida keng tarqalgan kasallik hisoblanadi.Ya'ni, ko'p yoshlar bajarishi kerak bo'lgan ishlarni vaqtini davomli muddatda ortga surishi yoki shu ishga nisbatan istakning kamayishidir.Bu esa ulg'ayib borayotgan yoshlar uchun kichik salbiy oqibatlardan tortib juda katta salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.Masalan:o'z tengdoshlariga nisbatan ancha ortda qolishi,atrofida yuz berayotgan narsalarga nisbatn beparvolik,doimiy ravishda yaqinlari va atrofidagi narsalardan zerikish,o'ziga past baho berish,boshqalar bilan o'zini tez-tez solishtirish,samaradorlikning yo'qolishi, pasayishi hatto o'z joniga qasd qilishga ham olib kelishi mumkin.

Kalit so'z

Demotivatsiya,o'z-o'zini boshqalar bilan solishtirish,ota-onalar,salbiy oqibatlar,psixolog.

Kirish qism: Ko'p ota-onalar farzandlarida kuzatilayotgan turli xildagi holatlarga beparvolik bilan qarashadi.Masalan:farzandining biron narsaga bo'lgan qiziqishining yo'qolishi va atrofidagi insonlarga nisbatan asabiy holatda muomilada bo'lishi.Bu ota-onalar va farzandlar uchun odatiy holdir.Lekin, bu holatni ota-onalar takroriy ravishda o'z farzandida kuzatsa bunga jiddiy qarashi va tegishli choralarni ko'rib, uni demotivatsiya holatidan olib chiqishi lozim.Hozirgi vaqtda ota-onalar tomonidan farzandini kuzatish vaqtida eng ko'p beriladigan savollar:farzandimda tez-tez motivatsiya yetishmaslik holati kuzatiladi va buning sababi nimada?O'z tengdoshlaridan nega ortda qolmoqda?Farzandim deyarli hech narsaga qiziqish bildirmaydi.Bunga qanday chora ko'rishimiz kerak? degan savollar berishadi.Bu kabi savollarga demotivatsiyani yo'q qilish uchun turli yechimlar mavjud.Misol uchun: ota-onalar tomonidan uydagi muhitni o'zgartirish.Ya'ni, farzandingiz demotivatsiya paytida oz bo'lsada qiziqish bildirayotgan narsalarni uning hayotiga olib kirish.Deylik, farzandingiz kino-film,multifilmga qiziqish bildirmoqda,bu holatda siz uning xonasining devorlariga shu kino-film,multifilmdagi bosh qahramonlarini sur'atlarini tushirishingiz va shu qahramonlar bilan bog'liq bo'lgan narsalarni olib berishingiz lozim.Bunday qiziqish mavjud bo'lmasa,farzandingiz bilan ko'p vaqt o'tqazishingiz,farzandingizning odatiy kun tartibini noodatiy holatda yangidan tuzib chiqishingiz lozim.Bu narsaning o'rnini esa farzandingizni quvontiradigan va insonni o'ziga tez jalb qiladigan o'yinlar ,she'rlar,kitoblar bilan to'ldirgan ma'qul.Lekin bunday she'rlar va o'yinlar,kitoblar bilan shug'ullanishi ham keyinchalik farzandingizning zerikishiga olib belishi mumkin.Bunday holatning oldini olish maqsadida ota-onalar ularni tez-tez sayohatlarga olib chiqshlari kerak.Ya'ni bir kun kitob o'qib berishsa,boshqa kun uni bolalarga xush keladigan joylarga olib borganingiz ma'qul.Agar bu holat ham ish bermasa, u holda tegishli malakali psixologlar bilan maslahatlashgan ma'qul.Lekin yana bir shunday holat mavjudki, bu holat demotivatsiya va ota-onalarning qo'pol xatosi tufayli ulg'ayib borayotgan farzandingizda tez-tez kuzatiladi.Farzandingizning o'zini boshqalar bilan solishtirishi,aynan shu kabi holat uning yosh va beg'ubor qalbida hasad,tengdoshlarini

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslik,adovat,o'ziga past baho berish kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltirib chiqaradi.Ota-onalar bunday holatga jiddiy qarashi lozim ya'ni, farzandini boshqalar bilan solishtirishlarini bas qilib,uni ko'proq maqtashi, faxrlanishini ta'kidlashi va shu vaqtgacha erishgan yutuqlarini aytib, bundan keyingi yutuqlariga ham o'z ishonchlarini bildirishi, boshqalardan farq qilishini alohida aytib o'tishi va doimo o'zi bilan faxrlanish hissini uyg'otishni o'rgatishi kerak.Shu holatdagina farzand o'zini boshqalar bilan solishtirishni bas qilib,o'zganing yutug'idan faxrlanishni va boshqalarga e'tibor bermagan holda, faqat va faqat muvaffaqiyatga qarab yurishni afzal biladi va harakat qila boshlaydi.

Natija:Dunyodagi barcha ulg'ayib borayotgan yoshlarda demotivatsiya holati kuzatiladi.Bunday holatda bolaning qiziqishi sezilarli darajada pasayadi,hayolan butunlay boshqa bir dunyoda yashay boshlaydi.Keyinchalik vazifalarni o'z vaqtida bajarmaslik holatlari kuzatiladi yoki uni tezroq tugatishga harakat qiladi.Ya'ni u vazifalarni bajargani sari unda zerikish hissi ortib boraveradi va tezroq yakunlashga undaydi.O'z-o'zidan bunday holat tengdoshlaridan ortda qolishga sababchi bo'ladi.

Xulosa:Ulg'ayib borayotgan yoshlarda kuzatilayotgan Demotivatsiya holatiga ota-onalar mas'ul.Demotivatsiya holatida vaqti-vaqti bilan psixolog nazoratida bo'lishi lozim.Demotivatsiya holatida yuz beradigan har qanday salbiy yoki ijobiy o'zgarishlarga jiddiy qarash lozim.

Adabiyotlar:

1.Prezi.com.

URL:https//prezi.com

2. Akme.uz.

URL:https//akme.uz

3. Madreshoy.com.

URL:https//madreshoy.com

4. Natalie Rathvon. The Unmotivated Child[2016]

5. Matt Granados. Motivation Unmotivated[2020]